

ARAB TILI GRAMMATIKASIGA KIRISH

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va
Tarjimashunoslik fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish arab tili
101-guruh talabasi Baxromjonova Mohlaroyim
Ilmiy maslahatchi: Kabulova.U.S.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili grammatikasining ikki asosiy yo'nalishlari – nahv va sarf haqida umumiy ma'lumot beriladi. Arab grammatikasi so'zlarning tuzilishi, gapning shakillanishi e'rob kabi qoidalarini o'rgatib, matnlarni aniq va tushunarli talqin qilishga yordam beradi. Maqolada, shuningdek, arab tilining ilm, ta'lim va madaniy sohalardagi ahamiyati yoritilib, grammatikani puxta bilish tilni chuqur o'rganishning muhim bosqichi ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *arab tili, arab tili grammatikasi, e'rob, sarf, nahv.*

Аннотация: В данной статье приводится общее описание двух основных разделов арабской грамматики — нахва и сарфа. Арабская грамматика изучает строение слов, формирование предложений и правила изменения окончаний, что помогает правильно понимать тексты и ясно выражать мысли. В статье также подчеркивается значение грамматических основ в процессе глубокого освоения арабского языка.

Ключевые слова: *арабский язык, грамматика арабского языка, и'раб, сарф, нахв*

Annotation: This article provides a general overview of the two main sections of Arabic grammar — Nahw and Sarf. Arabic grammar studies the structure of words, the formation of sentences, and the rules for changing endings, which helps to understand texts correctly and express ideas clearly. The article also emphasizes the

importance of grammatical foundations in the process of deeply learning the Arabic language.

Keywords: *arabic language, Arabic grammar, I'rab, Sarf, nahv*

الملخص: يقدم هذا المقال نظرة عامة على القسمين الرئيسيين من قواعد اللغة العربية: النحو والصرف. تدرس قواعد اللغة العربية بنية الكلمات، وتكوين الجمل، والقواعد المتعلقة بتغيير النهايات، مما يساعد على فهم النصوص بشكل صحيح والتعبير عن الأفكار بوضوح. كما يؤكد المقال على أهمية الأسس النحوية في عملية التعمق في تعلم اللغة العربية.

كلمات المفتاحية: اللغة العربية قواعد اللغة العربية الإعراب الصرف النحو

VII-VIII asrlarda Araviya hududida va arablar tomonidan bosib olingan qator mamlakatlarda – Old Osiyo, Shimoliy Amerika hamda Pireney yarim orolida – jahon miqyosidagi mamlakat – Arab xalifaligi tashkil topdi. Arab xalifaligida tilshunoslikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, Hindistondagi kabi amaliy ehtiyojlar bilan bog'lanadi, ya'ni bu davrda eski yodgorliklar va Qur'on tili bilan jonli arab tili orasida katta farqlanish yuzaga keladi. Arab tilshunosligi o'z taraqqiyoti davrida hind va tilshunosligi yutuqlariga, o'z an'alariga tanqidiy va ijodiy yondashgan. Arablar o'z tillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda undan foydalanganlar. Xalil al-Farohidiyning shogirdi, mashhur arab tilshunosi Amir bin Usmon Sibavayxiy o'zining “al-kitob” asarini yozdi¹.

Arab tilshunoslaridan farqi, fonetika masalalariga g'oyat sezgirlik bilan munosabatda bo'lganlar. Ular tovush va harfni, yunonlardan farqli, yunonlardan qat'iyon farqlaganlar. Shuningdek, harf termini bilan faqat yordamchi zo'z va yozuvdagi ko'rinishini, ya'ni harfni ifodalaganlar. Arablar unli va undosh tovushlarni farqlab, undoshni mohiyat, unlini esa o'tkinchi deb ta'riflaganlar va arab so'zlarida undosh tovushlarning asosiylikini, yetakchilikini ta'kidlaganlar.

¹ Rasulov R. Umumiy Tilshunoslik. -Toshkent, 2009. -B.33-36.

Qiyoslang: *kitob, kotib, kutub*. Shunga ko'ra, ular uch undoshli o'zaklarni alohida ajratganlar.

Otlarni atoqli va turdosh otlarga, turdosh otlarni esa aniq va mavhum otlarga ajratadilar. Otlarning son, egalik, kelishik kategoriyalari ancha mukammal tasvirlanadi.

Arab tili dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biridir. Qur'oni Karim, hadislar, fiqh, adabiyot va ilmiy merosning katta qismi arab tilida yozilgan. Shuning uchun arab tilini chuqur o'rganish uchun uning grammatikasi, ya'ni nahv va sarf ilmlarini bilish juda muhimdir. Arab tili grammatikasi ikki asosiy bo'limdan iborat: nahv va sarf. Nahv ilmi jummalarni tuzish, so'zlarning o'rni e'rob (so'z oxiridagi o'zgarishlar) va gapning qurilish qoidalarini o'rgatadi². Masalan, ism, fe'l va harfning vazifasi, muhtado-xabar, foil-maf'ul kabi tushunchalar nahvga fe'l zamon e'tibori bilan uch turlidir. Moziy-o'tgan zamonda bir ishning yoki holatning bo'lishini bildiradigan fe'ldir. Mu'zore-hozirgi yoki kelajak zamonda bir ishning yoki holatning bo'lishini bildiradigan fe'ldir. Amr-bir ishning ishlanishi yoki bir holatning bo'lishining talab e'tiladigan fe'ldir³. Mu'zore moziyning oldiga muzoraat harflari deb atalgan ت ي ن harflarning biri ottirilishi bilan yasaladi. Muzorooat harfi moziysi to'rt harfli bo'lgan muzorelarda zammali, boshqalarida fathali bo'ladi. Harfi muzorooat kirgandan keyin bosh harfi ba'zi vaqt avvalgi harakati bilan qoladi. Ba'zi vaqt sokinli qilinadi va ba'zi vaqt butunlay tushirilib yuboriladi. Agar moziy uch harfli bo'lsa, sokinli qilinadi. To'rt, besh, olti harfli bo'lib, hamza bilan boshlanmasa, o'z holicha qoldiriladi. Hamza bilan boshlanadigan bo'lsa, hamza tushirib yuboriladi. Arab tili grammatikasining eng asosiy unsurlaridan biri bu jins kategoriyasidir. Bu kategoriya so'zlarning erkaklik yoki ayollik jinsiga bo'linishini va bu bo'linishning grammatik tizimiga qanday ta'sir ko'rsatishini belgilaydi. Jins kategoriyasi arab tilida barcha otlar, sifatlar, fe'llar va boshqa

³ Sanatulla Bekpo'lat Mabdaus-sarf va mabdaun-nahv. -Toshkent, 2022. 28-bet.

soʻz turkumlariga tegishli boʻlib ularning shakllanishida va qoʻllanishida muhim rol oʻynaydi. Ushbu maqola jins kategoriyasini nafaqat nazriy, balki amaliy jihatdan ham tahlil qiladi. Asosiy eʼtibor jinsning shakllanish qoidalari, uning boshqa grammatik unsurlari bilan uygʻunligi va arab tili sintaksisidagi ahamiyatiga qaratiladi.

Arab tilida jins ikkita asosiy turga boʻlinadi:

1. Muzakkar jins. Muzakkar (erkak) jinsi asosiy va tabiiy holat hisoblanadi. Bu soʻzlarda maxsus grammatik koʻrsatkich boʻlmaydi.
2. Muannas jins. Muannas(ayol)jinsi odatda maxsus grammatik koʻrsatkichlar orqali shakllanadi. Arab tilidagi jins kategoriyasi nafaqat grammatik moslik uchun, tilning balki mantiqiy tuzilishi uchun ham asosdir. Arab tilida muzakkar va muannas jinsi mavjud. Muannas jinsni bildiruvchi bir necha grammatik belgilar mavjud.

Arab tilidagi barcha soʻzlar uvchta katta guruhga boʻlinadi. 1)Ism 2)feʼl 3)yordamchi soʻzlar. Ism turkumiga ot, sifat, son, olmosh va ravish, harakat nomi va sifat-dosh kabi mustaqil maʼno anlatadigan soʻzlar kiradi. Feʼl mustaqil mazmunga ega boʻlib, biron-bir ish harakatning sodir boʻlishiga yoki holatiga ishora qiladigan soʻzlarga *feʼl* deyiladi. Feʼl turkumiga uning barcha mayllari, boblari, darajalari, boʻlishli yoki boʻlishsiz shakllari kiradi. Feʼllarda ish-harakat oʻtgan hozirgi yoki kelasi zamondan birida hosil boʻladi⁴

Yordamchi soʻzlar-mustaqil mazmunga ega boʻlmagan, ammo ism yoki feʼl guruhidagi soʻzlarga taʼsir qiladigan va ularning maʼnosini aniqlash-trib keladigan soʻzlardir. Ularga aniqlik artikli, old qoʻshimcha yuklama, bogʻlovchi, undalmalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Rasulov R. Umumiy Tilshunoslik. -Toshkent, 2009. - B.33-36.

⁴ Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. Oʻquv qoʻllanma. -Toshkent, 2019. 34-bet.

2.Sanatulla Bekpo‘lat Mabdaus-sarf va mabdaun-nahv. -Toshkent, 2022. 28-bet.

3.Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2019. 34-bet.